

MUSTAQILLIKNING DASTLABKI YILLARIDA NAMANGAN VILOYATI CHORVACHILIK XO'JALIGINING AHVOLI.

Xabibullayev Baxodir Asatilla o'g'li

Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti

baxodirxabibillayev@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7575558>

Annotatsiya: Ushbu maqolada qishloq xo'jalikning asosiy tarmoqlaridan biri chorvachilik sohasining mustaqillikning dastlabki yillarida Namangan viloyatidagi holati, viloyatga qarashli tumanlarda chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish ko'rsatkichlarining tahlili haqida batafsil ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: chorvachilik, qishloq xo'jaligi, mahsulot, iqtisod, sanoat, moliya, kredit, sut mahsulotlari, go'sht mahsulotlari, don mahsulotlari.

Qishloq xo'jaligining asosiy tarmoqlaridan biri bo'lgan chorvachilik jadal rivojlanayotgan sohalardan biridir. Qishloq xo'jaligining ushbu sohasini qo'llab quvvatlash orqali aholini arzon chorvachilik mahsulotlari bilan taminlanadi. Ma'lumki yurtimizda yirik shohli qoramollarni asosiy qismi aholi xonadonlarida boqiladi. Mustaqillikning dastlabki davrlarida boshqa sohalar qatori agrosanoat tarmoqlari rivojiga ham katta etibor qaratildi. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov takidlaganidek: "Iqtisodiyotning agrar majmuasining rivojlantirish muommolarini hal etish O'zbekistonni bozorga o'tishdagi butun strategiyasini hal qiluvchi bo'g'indir".[1]

Ma'lumki aholi istemol mahsulotlarining katta qismini agrosanoat kompleksi yetkazib beradi. Agrasanoatning bir bo'lagi bo'lgan chorvachilik sohasi qadimdan xalqimizning asosiy yumushlaridan biri bo'lib, ushbu tarmoq Respublikamiz aholisiga sut hamda go'sht mahsulotlari yetishtirib beruvchi, sanoatni esa yuqori sifatli hom-ashyo bilan taminlovchi muhim tarmog'i hisoblanadi. Chorvachilik - qishloq xo'jaligining muhim tarmoqlaridan biridir.

U muhim ozuqa mahsulotlarini - sut, go'sht, tuxum, baliq kabi chorvachilikdan olinadigan oqsil moddasi manbasi, sanoat ishlab chiqarishi, qayta ishlovchi sanoat uchun xom-ashyo (sut, pishloq, qatiq, go'sht, kolbasa, teri va b.) bo'lib xizmat qiladi.[2]

Chorvachilik tarmog'ida 1993-yildan boshlangan iqtisodiy islohotlar natijasida 1499 jamoa chorvachilik ho'jaliklari aksiyadorlik jamiyatlariga aylantirildi, shu bilan birga 600 chorvachilik fermalari jamoa azolariga kim oshdi savdodi asosida hususiy mulk qilib sotildi [3]. Shu va shunga o'xshash tadbirlar qolaversa sohaga doir qonunchilik tizimlarini rivoj topishi chorvachilik rivoji uchun zamin bo'ldi.

1992-yilda Namangan viloyati hududida 378202 gektar qishloq xo'jaligiga qarashli yerlar mavjud bo'lib, shundan 197552 gektar yer maydoni haydaladigan

yerlar turiga mansub edi. Chorva boqish uchun ushbu yerlarning har yuz gektaridan 1990 yilda 8114 kg go'sht yetishtirilgan bo'lsa, 1991 yilda esa 8002 kg go'sht mahsuloti yetishtirilgan. 1990 yilda 38003 kg sut yetishtirilib, 1991 yilda bu raqamlar 38609 kg ga yetkazildi [4].

Bozor iqtisodiyotiga o'tishning dastlabki yillarida iqtisodiyotni barqarorlashtirish, xo'jaliklar moliyaviy holatini yaxshilash, maqsadida qator tadbirlar amalga oshirildi. Dehqonchilik va chorvachilikda mehnatni tashkil etishning ilg'or usullari ijara, oila va boshqa ko'rinishlari amaliyotga keng tatbiq etildi. 1992-yilda viloyat bo'yicha 16050 tonna go'sht ishlab chiqilib, 84.7 % ga reja bajarildi. Uychi 50.7 % , Norin 83.7 % , Yangiqo'g'on 86.7 % , Chust 88.8 % rejani bajarish bilan sustkashlikka yo'l qo'yishmoqda edi. 1992- yilda yetishtirilgan ozuqalarni ayniqsa aralash yem kamayganligi sababli sigirlarning mahsuldorli – sut ishlab chiqarish mahsuldorligi kamayib ketdi.[5]

Namangan viloyati 1993-yilning dastlabki choragida chorvachilik sohasidagi davlat buyurtmasini bajardi. Hususan 3184 tonna go'sht, 16367 tonna sut, 7085 ming dona tuxum tayyorlandi. Lekin ayrim tumanlarda sustkashliklarga yo'l qoyildi. [6]

1993-yilning dastlabki 4 oyida Namangan viloyatining Zadarya (hozirgi Mingbuloq tumani) tumanida 1992-yilning shu davriga nisbatan 3ta xo'jalik 42 tonna go'sht, 3ta xo'jalik 90 tonna sut, 4 ta xo'jalik 76 ming dona tuxum ishlab chiqarishni va 2 xo'jalik 4 tonna go'sht, 6 ta xo'jalik 81 ming dono tuxum tayyorlashni kamaytirib yuborgan. Bir bosh sigirdan "Gigant" jamoa xo'jaligi 168kg sut kam sog'ib olgan. [7]

Kosonsoy tumanida 10 ta xo'jalik 178 tonna go'sht, 6 ta xo'jalik 52 tonna sut, 4 ta xo'jalik 1423 ming dona tuxum kam tayyorlaganlar.[8] Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinadiki ayrim tumanlar rejani bajarishmagan.

1995-yil 1-yanvar holatiga ko'ra viloyatdagi 56 ta chorvachilik fermalari o'z jamoalariga xissadorlik jamiyatlari shaklida xususiy mulk qilib berildi. Mazkur fermalarga ozuqa ekish uchun 10.5 ming gektar yer ajratildi, buning natijasida 1 bosh shartli hayvonga 0.45 gektardan yem-xashak maydoni to'g'ri keldi. Shu bilan birgalikda ushbu fermalarga 2 mln so'm miqdorida qisqa muddatli imtiyozli kreditlar ajratildi.[9] Xususiylashtirilgan ferma jamoalarining bajarilayotgan ishlariga bol'gan mas'uliyati sezilarli darajada ortdi. Buning natijasida Namangan tumanidagi "Samarqand", Yangiqo'rg'on tumanidagi "Yangiqo'rg'on" xususiy fermalarida 1993-yilga nisbatan go'sht ishlab chiqarish hajmlari 100.2 va 135 foizni, sut ishlab chiqarish 110.9 va 109 foizni, qoramollar bosh soni 107.8 va 100 foizni, shundan sigirlar 108.3 va 100 foizni tashkil etdi. O'rtacha bir sigirdan sut sog'ib olish 111 va 101, buzoq olish 100.7 va 103, go'sht sotish 151 va 153, sut

sotish esa 103.2 va 109 foizni tashkil etdi. Ushbu ijobiy holatlar bilan bir qatorda kamchiliklar ham mavjud. Asosan bu ayrim ho'jaliklarda go'sh ishlab chiqarish hajmi ko'payib ketganligi bo'ldi.[10] Bu muommolarga yechim sifatida quyidagilar ishlar ishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'lar edi:

- Xususiylashgan fermalarni podasini to'ldirish uchun imtiyozli kreditlar ajratish;
- Ular tomonidan sotilgan mahsulotlar uchun keng miqyosda foydalanish huquqiga ega to'lov vositasini joriy etish.

1994-yilga kelib qishloq ho'jaligida faoliyat yurutuvchi ishchi hodimlar o'rtacha ish haqi 277.8 so'mni tashkil qilayotgan bo'lsa, eng yuqori o'rtacha ish haqi 540.1 so'mni tashkil etuvchi moliya va kredit tizimida faoliyat ko'rsatayotgan ishchilar hissasiga to'g'ri kelmoqda edi. Eng quyi pog'onada o'rtacha oylik ish haqi esa o'rmon ho'jaligida faoliyat ko'rsatayotganlarga berilar edi.[11]

1995 -yilda chorvachilik maxsulotlari ishlab chiqarilishi.

Maxsulotlar nomi	O'lcho v birligi	Reja	Xaqiqatda	Bajari lishi %	1994-yilga nisbatan foizda	1994-yil 1993yilga nisbatan foizda
Go'sht	tonna	14063	12280	87.3	98.4	95
Sut	tonna	77472	73183	94.5	100.3	97.6
Tuxum	Ming dona	30762	10735	94.9	55.7	67.4
Hayvonlarning bosh soni.						
Jami qoramollar	bosh	112898	101868	90.2	93.9	99.3
Qo'y-echkilar	bosh	144996	130139	89.8	95.1	93.5
Parrandalar	bosh	713278	258951	36.3	66.8	91.6

1995-yil davomida 12280 tonna go'sh ishlab chiqarilib, yillik reja 87.3 foizga bajarildi, bu korsathich o'tgan yilga nisbatan 1.6 foizga kam demakdir. sut ishlab chiqarish hajmi ham o'tgan yilga nisbatan 0.3 foizga kam bajarilib, 73183 tonnani tashkil etdi. Tuhum ishlab chiqarish hajmi keskin kamayib ketdi. Hususan 1995-yilda 10735 ming donani tashkil qilib, yillik rejani 34.9 foizi bajarildi holos.[12]

Xulosa qilib aytishmumkinki Namangan viloyatida mustaqillikning dastlabki yillarida aniqrog'i 1991-1995 yillarda chorvachilikka sohasiga munosabat tubdan o'zgarishiga qaramaychorvachilik maxsuldorligi yildan yilga kamayib borgan. Bunga sabab sifatida birinchidan aholi sonining ko'payishi natijasida chorvachilik maxsulotlariga talab ortgan bolsa, ikkinchidan chorva ozuqa rejasi mutassil bajarilmadi natijada chorva ozuq mahsulotlarida yetishmovchilik holatlari kuzatildi. Bundan tashqari xususiylashtirilgan chorvachilik fermalarida eskicha boshqaruv shakli saqlanib qolganligi, zooveterinariya hizmati yahshi yo'lga qoyilmaganligi, naslchilik ishlari yahshi olib borilmaganligi maxsuldorlikni yildan-yilga kamayishiga asos bo'ldi.

References:

- 1.Karimov I.O'zbekiston – milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura: nutqlar, maqolalar, suhbtleri. – T: O'zbekiston.1993. – B.25
2. Ergashev R. Qishloq ho'jaligi iqtisodiyoti.- T: Exntremumpress. 2011. – B.391
- 3.Bazarov N. Diss Qoromolchilik ho'jaliklarida maxsulot ishlab chiqarishni ko'paytirish va uning samaradorligini oshirish yo'llari. Toshkent. 2001. – B. 3
- 4.Namangan viloyati arxivi. 911 fond, 1 opis, 20 hujjat. 4B
- 5.Namangan viloyati arxivi 948-fond.1-opis.6 hujjat.22B.
- 6.Namangan viloyati arxivi.911fond.1,opis.55 hujjat.43B
- 7.Namangan viloyati arxivi.911fond.1,opis.55 hujjat.4B
- 8.Namangan viloyati arxivi.911fond.1,opis.55 hujjat.6B
- 9.Namangan viloyati arxivi.911-fond.1-opis.91-hujjat .8B.
- 10.Namangan viloyati arxivi.911-fond.1-opis.91-hujjat .8B
- 11.Namangan viloyati arxivi.911-fond.1-opis.91-hujjat.12B.
- 12.Namangan viloyati arxivi.948-fond. 1-opis.23-hujjat. 3B.
- 13.Артукметов З. Кишлоқ хужвлиги асослари. Тошкент. “ УЗбекистон файласуфлар жамияти” 2012
- 14.Дурст Л, Витман М. Кишлоқ хужалиги хайвонларини озиклантириш. Урганч. “Хоразм” 2010
- 15.Ўзбекистон Республикаси йиллик статистик туплами. Тошкент. 2004
- 16.Ешназаров Ж. Чорвачилик ахамияти. Тошкент . «Иктисод». 2010
- 17.Турахонов М. Чорвачилик асослари.Укув услубий кулланма. Андижон. 2021